

UO‘K(UDC, YDK): 82.091

REY BREDBERI VA AHMAD A’ZAM ASARLARIDA IJTIMOIIY–SIYOSIY PROPAGANDA: QIYOSIY–TIPOLOGIK TADQIQ⁵**Raxmatullayeva Xadicha Muxammad Zarif qizi***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**tayanch doktoranti,**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: rakhmatkhadicha@gmail.com**ORCID ID:0009–0007–5110–1943***ANNOTATSIYA****KALIT SO‘ZLAR**

Ushbu maqolada Rey Bredberining “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” hamda Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” asarlari misolida totalitar jamiyatlarda propaganda mexanizmlarining ishlash prinsiplari va ularning shaxs psixologiyasiga ta‘siri qiyosiy–tipologik jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi antiutopik janr doirasida axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy nazorat usullarining G‘arb va o‘zbek adabiyoti kontekstida parallel ravishda o‘rganilayotgani bilan belgilanadi. Maqolada propaganda tushunchasi shunchaki siyosiy institut emas, balki jamiyatning intellektual salohiyatini pasaytirish, tarixiy xotirani o‘chirish va shaxsni ommaviy madaniyatning boshqariluvchi obyektiga aylantirish vositasi sifatida tahlil qilingan. Har ikki asardagi kitob yoqish, axborot senzurası, vizual ekranlar orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiya hamda tilning mafkuraviy qurolga aylanishi kabi lisoniy va estetik hodisalarni qiyosiy o‘rganadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bredberi asarida texnologik taraqqiyot orqali ongli ravishda tafakkurdan voz kechtirish tasvirlangan bo‘lsa, Ahmad A‘zam ijodida bu jarayon majoziy obrazlar va totalitar tuzumning o‘ziga xos milliy–ijtimoiy ko‘rinishlari orqali yoritiladi. Maqolada antiutopik asarlardagi propaganda mexanizmlari insonning tanqidiy tafakkurini so‘ndirishga, muloqotning qadrsizlanishiga va oqibatda ma‘naviy inqirozga olib kelishi ilmiy xulosalangan. Tadqiqot natijalari zamonaviy komparativistika, adabiy sotsiologiya va diskurs tahlili yo‘nalishlari uchun muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Propaganda mexanizmlari, antiutopiya, qiyosiy adabiyotshunoslik, tilning manipulyativ qudrati, totalitarizm, preskriptiv til, axborot nazorati.

Received: November 25, 2025**Accepted:** December 2, 2025**Available online:** February 25, 2026⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Raxmatullayeva X. Rey Bredberi va Ahmad A‘zam asarlarida ijtimoiy–siyosiy propaganda: qiyosiy–tipologik tadqiq. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 59-77.

**SOCIO–POLITICAL PROPAGANDA IN THE WORKS OF RAY
BRADBURY AND AHMAD A’ZAM:
A COMPARATIVE–TYPOLOGICAL STUDY**

Rakhmatullayeva Khadicha Mukhammad Zarif kizi

*PhD student of
Uzbekistan State World Languages University,
Tashkent, Uzbekistan*

E–mail: rakhmatkhadicha@gmail.com

ORCID ID: [0009–0007–5110–1943](https://orcid.org/0009-0007-5110-1943)

ABSTRACT

This article provides a comprehensive comparative and typological study of the mechanisms of propaganda in totalitarian societies and their impact on individual psychology, as depicted in Ray Bradbury’s “Fahrenheit 451” and Ahmad Azam’s “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” (A Dream or a Journey to Gulistan). The relevance of the research is defined by the parallel examination of information manipulation and social control methods within the framework of the dystopian genre in the contexts of both Western and Uzbek literature. In this study, propaganda is analyzed not merely as a political institution but as a tool for diminishing society’s intellectual potential, erasing historical memory, and transforming the individual into a manageable object of mass culture. In the article comparatively explores linguistic and aesthetic phenomena such as book burning, information censorship, manipulation via visual screens, and the transformation of language into an ideological weapon as reflected in both works.

The analysis indicates that while Bradbury depicts a conscious abandonment of thought facilitated by technological progress, Ahmad Azam portrays this process through metaphorical imagery and the specific socio–national manifestations of a totalitarian regime. The article concludes that propaganda mechanisms in dystopian works lead to the suppression of critical thinking, the devaluation of communication, and, ultimately, a spiritual crisis. The findings of the research serve as a significant theoretical resource for modern comparative studies, literary sociology, and discourse analysis.

KEY WORDS

Propaganda mechanisms, dystopia, comparative literary studies, manipulative power of language, totalitarianism, prescriptive language, information control.

**СОЦИАЛЬНО–ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПРОПАГАНДА
В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РЭЯ БРЭДБЕРИ И АХМАДА АЪЗАМА:
СРАВНИТЕЛЬНО–ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ**

Рахматуллаева Хадича Мухаммад Зариф кизи

докторант,

*Узбекский государственный
университет мировых языков,*

Ташкент, Узбекистан

E-mail: rakhmatkhadicha@gmail.com

ORCID ID: [0009-0007-5110-1943](https://orcid.org/0009-0007-5110-1943)

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье проводится комплексное сравнительно–типологическое исследование принципов функционирования механизмов пропаганды в тоталитарных обществах и их влияния на психологию личности на примере произведений Рэя Брэдбери «451 градус по Фаренгейту» и Ахмада Азама «Сон, или Путешествие в Гулистан». Актуальность исследования определяется тем, что методы информационной манипуляции и социального контроля в рамках жанра антиутопии изучаются параллельно на материале западной и узбекской литературы. Пропаганда в статье рассматривается не просто как политический институт, а как средство снижения интеллектуального потенциала общества, стирания исторической памяти и превращения личности в управляемый объект массовой культуры. Для обоснования подобного подхода в работе сопоставляются такие лингвистические и эстетические явления, как сожжение книг, информационная цензура, манипуляция через визуальные экраны и трансформация языка в идеологическое оружие, показанные в обоих произведениях. Анализ показывает, что если у Брэдбери изображен осознанный отказ от самостоятельного мышления, ставший следствием технологического прогресса, то у Ахмада Азама этот процесс освещается с помощью метафорических образов и рассматривается как специфические национально–социальные проявления тоталитарного строя. В заключении статьи делается научный вывод о том, что изображенные в антиутопических произведениях механизмы пропаганды ведут к подавлению критического мышления, обесцениванию коммуникации и, в конечном счете, к духовному кризису. Результаты исследования служат важным теоретическим источником для современной компаративистики, социологии литературы и дискурс–анализа.	Механизмы пропаганды, антиутопия, сравнительное литературоведение, манипулятивная сила языка, тоталитаризм, прескриптивный язык, контроль информации.

KIRISH

Zamonaviy adabiyotshunoslikda tilning hokimiyat vositasi sifatidagi funksiyasi muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. XX asrda totalitar va avtoritar tuzumlar tajribasi, shuningdek, post-totalitar jamiyatlardagi mafkuraviy transformatsiyalar adabiyotda propaganda obrazining keng tadqiq etilishiga sabab boʻldi. Propaganda bu nafaqat bevosita siyosiy shiorlar, balki tilning semantik tuzilishini oʻzgartirish, maʼnolarni manipulyatsiya qilish va jamiyat ongini boshqarish mexanizmlari majmuasidan iboratdir.

Propaganda maʼlum mafkuraviy qarashlarni, siyosiy gʻoyalarni, ijtimoiy meʼyorlarni keng ommaga singdirish maqsadida olib boriladigan maqsadli axborot taʼsiridir (Ellul, 1965, 61). Zamonaviy tadqiqotchilar propagandani faqat ochiq targʻibot emas, balki tilning oʻziga xos tuzilishini oʻzgartirish, maʼnolarni manipulyatsiya qilish mexanizmi sifatida tushunishadi (Forni, 2019, 47; Chomsky & Herman, 1988). Lorena Forni oʻz ilmiy ishlarida preskriptiv til tushunchasini kiritadi va propagandaning asosiy vositasi aynan tilning normativ kuchi ekanligini taʼkidlaydi (Forni, 2019, 48–50). Preskriptiv til bu nafaqat grammatik qoidalar, balki soʻzlarning qabul qilinadigan maʼnolari, muloqot uslublari, fikrlash usullari boʻyicha meʼyorlar tizimini oʻrnatishdir. Hokimiyat tilni nazorat qilish orqali odamlarning dunyoqarashini, qiymat tizimini va xatti-harakatlarini bilvosita boshqaradi (Foucault, 1972).

Nemis tilshunosi Viktor Klemperer oʻz ilmiy ishlarida natsistlar tili semantik oʻzgarishlar orqali qanday zarhallanganini koʻrsatadi (Klemperer, 1947, 15–18). Masalan, faol soʻzi agressiv maʼnosini, ishonch soʻzi esa soʻzsiz boʻysunish maʼnosini kasb etgan. Bu semantik josuslik deb ataladi, yaʼni soʻzlar oʻz asl maʼnosini yoʻqotib, mafkuraviy vosita boʻlib qoladi. Viktor Klempererning taʼkidlashicha, til buzilganda fikrlash ham buziladi, chunki biz tildan tashqari fikrlay olmaymiz (Klemperer, 1947, 156). Bu xulosalar Bredberining asaridagi tilni soddalashtirishning oqibatlari tasvirini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi (Watt, 1980, 201).

Fransuz faylasufi Mishel Fuko o'zining asarlarida diskurs va hokimiyat munosabatlarini chuqur tahlil qilgan (Foucault, 1969, 89; Foucault, 1975, 167). Fukoning fikricha, har qanday ijtimoiy tizimda bilim va hokimiyat ajralmas bog'langan, hokimiyat nafaqat majburlash orqali, balki haqiqat rejimlarini yaratish orqali ishlaydi (Foucault, 1975, 194). Badiiy adabiyot esa shu dominant diskurslarni vizual qilish va tanqid qilish imkoniyatiga ega (Booker, 1994).

Rey Bredberining 1953–yilda nashr etilgan “Farengeyt bo'yicha 451 daraja” romani va Ahmad A'zamning “Ro'yo yoxud G'ulistonga safar” asari turli madaniy–tarixiy kontekstlarda yaratilgan bo'lsa–da, ikkala asarda ham tilning manipulyativ qudrati, ma'naviy nazorat va mafkuraviy bosim masalalari markaziy o'rin tutadi. Bredberining distopik dunyosi ochiq totalitar nazorat timsolini ko'rsatsa, Ahmad A'zamning asari esa sovet mafkurasi qulaganidan keyingi ruhiy inqirozini tasvirlaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi ikki asardagi propaganda mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek tilning hokimiyat qo'lidagi qudratini badiiy adabiyot kontekstida o'rganishdan iborat.

ASOSIY QISM

Bredberining romani sovuq urush davridagi makkartizm va senzura kuchaygan 1953–yil Amerikasida yozilgan va o'sha davr Amerika jamiyatida fikr erkinligiga tahdid kuchaygan payt edi. Kutubxonalardan xavfli kitoblarni olib tashlash, intellektualligi yuqori bo'lgan shaxslarni ta'qib qilish amaliyoti yozuvchiga kelajakda kitoblar butunlay yo'q qilinadigan jamiyatni tasavvur qilishga asos bo'ladi. Devid Sid esa Bredberining romani 1950–yillar Amerika jamiyatidagi konformizm va intellektual passivlik xavfiga bevosita javob ekanligini ko'rsatadi (Seed, 1994, 225–240). Asar nashr etilganda, bu faqat fantastik hikoya emas, balki haqiqiy xavf haqida ogohlantirish sifatida qabul qilindi.

Ahmad A'zamning asari esa boshqa tarixiy tajribadan kelib chiqadi. Post–sovet jamiyatlarida totalitar tizim qoldiqlari, shaxsga sig'inish an'analari, erkinlikdan qo'rqish psixologiyasi hali ham kuchli edi. G'uliston mamlakati

shunchaki fantastik joy emas, balki yaqin o'tmishning allegorik tasviridir. Zanjir ramzi orqali Ahmad A'zam totalitar tizimning nafaqat tashqi majburiyatini, balki ichki psixologik bog'lanishini ham ko'rsatadi.

Janriy jihatdan ikkala asar ham antiutopiya bo'lsa-da, ularning yondashuvlari farq qiladi. Bredberi klassik ilmiy-fantastika uslubida yozadi, bu yerda kelajakdagi Amerika, texnologik taraqqiyot, o't o'chiruvchilar tashkiloti tasvirlangan. Ahmad A'zam esa allegorik-fantastik usuldan foydalanadi, bunda sirli G'uliston, metaforik zanjir, real va fantastika o'rtasidagi noaniq chegara mavjud.

Har ikki asarda ham markaziy ramz propaganda tizimining mohiyatini ochib beradi, ammo bu ramzlar turlicha ishlaydi. Bredberining romanida asosiy ramz kitob va uning yoqilishidir. Kitob bu yerda bilim, xotira, mustaqil fikrlash, insoniy qadriyatlar majmui. Kitobni yoqish esa bu qadriyatlarni yo'q qilishning bevosita usuli. MakGiveron ta'kidlaganidek, Montag uchun kitob faqat qog'oz emas, balki haqiqiy ma'nolarning, mustaqil tafakkurning, insoniy haqiqatlarning timsoliga aylanadi (McGiveron, 1996, 245). O't o'chiruvchilar kasbi nomining o'zida paradoks yotadi, chunki ular olovni o'chirish o'rniga, uni qo'zg'atadi. Bu tilning ma'nolarini teskari aylantirish orqali manipulyatsiyaning yaqqol namunasi. O't o'chiruvchilar "baxt odamlari" deb ataladi, kitob yoqish esa axloqiy tozalash sifatida taqdim etiladi.

Ahmad A'zamning asarida esa asosiy ramz zanjirdir. Zanjir bu yerda ko'p qatlamli metafora. Birinchidan, bu qullikning bevosita belgisi. Ikkinchidan, bu identifikatsiya vositasi, chunki har bir g'uliyning zanjiriga qarab uning ijtimoiy mavqei belgilanadi. Uchinchidan, va eng muhimi, zanjir psixologik bog'lanishning ramzi. G'uliyalar o'z zanjirlariga shunchalik ko'nikib ketganlarki, uni yechishdan qo'rqadilar. Zanjir dastlab zaruratdan paydo bo'lgan bo'lishi mumkin, lekin vaqt o'tishi bilan u an'anaga, keyin esa majburiyatga aylanadi.

Ikki ramzning farqi shundaki, Bredberida nazorat intellektual sohaga qaratilgan, ya'ni bilimni yo'q qilish orqali amalga oshiriladi. Ahmad A'zamda esa nazorat ham jismoniy, ham psixologik, chunki zanjir tanani va ongni bir vaqtda

bog'laydi. Bredberi nima uchun o'ylashni yo'q qilish kerak degan savolga javob beradi, Ahmad A'zam esa nima uchun erkinlikni xohlamaslik kerak degan savolni ko'taradi.

Rey Bredberining romanida propaganda to'rtta asosiy mexanizm orqali ishlaydi. Birinchi mexanizm terminologik manipulyatsiyadir. Kasblar, tushunchalar, harakatlarning nomlari o'zgartiriladi va ularning asl ma'nosi yo'qoladi. Bu Oruellning yangi til konsepsiyasiga yaqin, ya'ni so'zlarning ma'nosini o'zgartirish orqali fikrni boshqarish. Ikkinchi mexanizm axborot nazoratidir. Bredberining dunyosida faqat bitta rasmiy manba mavjud. Kitoblar va boshqa mustaqil ma'lumot manbalari yo'q qilinadi. Odamlar faqat davlat taqdim etgan axborotni olishlari mumkin. Bu bir tomonlama axborot oqimini ta'minlaydi va muqobil fikrlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Uchinchi mexanizm hissiy manipulyatsiyadir. Baxt, xotirjamlik, xavfsizlik kabi ijobiy tushunchalar orqali odamlar mustaqil fikrlash xavfli va bezovta qiluvchi deb ishontiriladi. Odamlar xotirjam bo'lishni xohlasalar, o'ylashdan voz kechishlari kerak. To'rtinchi mexanizm ommaviy passivlashtiruvchi ta'sirdir. "Televideniya va oilalar" deb ataladigan teleko'rsatuvlar personajlari orqali odamlar fikrlovchi subyekt emas, passiv iste'molchi va tomoshabinga aylantiriladi. Montagning xotini Mildred butun kunini televizor oldida o'tkazadi va bu uning hayoti hisoblanadi. Marshal MakLuchanning *"Media muhit"* nomli mashhur tezisiga ko'ra, aloqa vositalari nafaqat xabar yetkazadi, balki bizning idrok qilish va fikrlash uslubimizni o'zgartiradi" (McLuhan, 1964), bu fikr Bredberining televizor ta'siri tasvirida yaqqol namoyon bo'ladi. Jen Bodriyyarning simulakr konsepsiyasi esa Bredberining dunyosida televizor orqali yaratilgan haqiqatni tushunishda yordam beradi, bunda virtual haqiqat real hayotdan ustun qo'yiladi. Bodriyyar tili bilan aytganda, simulakr bu asli (haqiqati) yo'q bo'lgan nusxa yoki belgidir (Baudrillard, 1981/1994).

Ahmad A'zamning asarida propaganda mexanizmlari ko'proq va murakkabroq. Asarda televideniya G'uliston jamiyatida eng kuchli propaganda quroli sifatida namoyon bo'ladi. Qahramon doimiy ravishda televizorni tomosha

qiladi va u orqali jamiyatning ahvoli haqida ma'lumot oladi. Muhim jihati shundaki, televizorda shoirlar she'r o'qiyotgan paytda *“lablarining qimirlashidan miyalariga boshqa she'r quyilib kelayotgani bilinib turadi”*. Bunda spontan ijodning ko'rinishi tasvirlanadi, lekin aslida bu ham dasturlashtirilgan, rejalashtirilgan bo'ladi.

Televizor orqali propaganda shunday ishlaydi: birinchidan, u doimiy axborot oqimini ta'minlaydi, shuning uchun odamlar o'z fikrini shakllantirishga vaqt topolmaydi. Ikkinchidan, u vizual ta'sir ko'rsatadi – ko'rish his qilishdan kuchliroqdir. Uchinchidan, televizor orqali jamiyatdagi voqealar “jonli” ko'rsatiladi, bu esa taqdim etiladigan ma'lumotga ishonchni oshiradi.

G'ulistonda san'atning barcha turlari – she'riyat, musiqa, hikoya – bir xil mavzuga bag'ishlangan. Qahramon ta'kidlaydi: *“bitta narsani ham kavlayversa, tagidan ko'p narsa chiqar ekan, zanjir mavzuida, unga bag'ishlangan nasr, nazm, qo'shiq, musiqalari shuncha rang barangki, muncha gap–u hayajonni qaydan topadilar deb lol qolasiz”* (Ahmad A'zam, 2025).

Bu propaganda mexanizmining mohiyati shundaki, jamiyatda yagona diskurs yaratiladi. Har qanday ijod faqat bir mavzuni ta'riflashi kerak. Bu sodda takrorlash emas – bu mavzuni turli ko'rinishlarda, turli janrlarda, turli badiiy uslublarda takrorlashdir. Natijada, odam qayerga qaramasa, bir xil g'oyaga duch keladi. Bu psixologiyada “takrorlanish effekti” deb ataladi – biror narsa ko'p marta takrorlansa, u haqiqat sifatida qabul qilina boshlaydi. Asarning eng dahshatli kashfiyoti shuki, rahbar aslida mavjud emas. Xoldor bilan xizmatchi qiz o'rtasidagi suhbatda ma'lum bo'ladiki, “daho g'uliyboshi” allaqachon vafot etgan yoki umuman hech qachon mavjud bo'lmagan.

Bu propaganda mexanizmining eng yuqori darajasi. Haqiqiy shaxsga sig'inishdan ham xavfliroq narsani – mavjud bo'lmagan shaxsga sig'inish ekanligini tasavvur qilishning o'zi qiyin. Chunki haqiqiy odam xato qilishi, keksayishi, o'lishi mumkin. Ammo virtual rahbar abadiy yosh, abadiy ma'sum, abadiy to'g'ri bo'lib qoladi. Uning “ko'rsatmalari bo'yicha yashash” aslida rahbariyat manfaatlari uchun yaratilgan qoidalar tizimi bo'yicha yashashdir.

Matnda bu juda aniq ko'rsatilgan: *“g'oyibligiga juda ko'p bo'lgan ekan... kitobim G'ulistonga kirib kelgan paytlari yo undan ancha oldinlar vafot etib ketgan—u, uning o'rinbosarlari yo o'rniga bo'laman deb talashib yotganlari buni g'uliyotdan yashirib kelayotgan ekan”* (Ahmad A'zam, 2025).

G'ulistonda maxsus falsafiy tizim mavjud bo'lib, u har qanday voqeani tushuntirish uchun ishlatiladi. Bu tizim *“nima boshlanmasin, oxirida yana shu boshiga qaytadi”* tamoyiliga asoslangan (Ahmad A'zam, 2025). Asarda ko'rsatilishicha, bu falsafiy tizim nihoyatda moslashuvchan – uni istalgan holatni tushuntirish uchun ishlatish mumkin. Masalan, *“olma yeyish zanjir hosil qilmaydi”* degan kashfiyot qilinganda, bu falsafiy tizim orqali tezda tushuntiriladi va yangi xulosalar chiqariladi. *“Bir olim qahramonlarimning ham olma yeyishi, lekin zanjirbandlikni xayoliga ham keltirmasligi misolida shunchaki bir taxmin aytgan ekan, taxmin ham pishib turgan ekanmi, birdan aniq haqiqatga aylanib, barq sur'atida g'uliyotning qulog'iga yetibdi”* (Ahmad A'zam, 2025).

Bu zamonaviy jamiyatlarda “ekspertlar fikri”, “ilmiy dalillar”, “tadqiqotlar ko'rsatadiki” kabi iboralar orqali amalga oshiriladigan manipulyatsiyaga o'xshaydi. Har qanday siyosiy qaror yoki ijtimoiy o'zgarishni “ilmiy asoslab” berish mumkin, agar kerakli “ekspertlar” topilsa. Asarning oxirida qahramon maydonga boradi va u yerda katta olamon to'planishi bo'layotganini ko'radi. Bu juda muhim epizod, chunki u propaganda mexanizmining eng ko'zga ko'ringan shaklini tasvirlaydi – ommaviy namoyishlar. Maydonda ikki guruh paydo bo'ladi, ya'ni, zanjirsiz yashashni xohlovchilar va zanjirni saqlab qolishni xohlovchilar odamlar. Ammo muhimi shundaki, ikkala guruh ham manipulyatsiya qilingan. Birinchi guruh qahramon va uning kitobi ta'sirida, ikkinchi guruh esa maxsus tayyorlangan g'uliy rahbarligida harakat qiladi.

Matnda bu juda aniqta'svirlangan: *“yangi kelganlarning zanjiri yo'g'on—yo'g'on... ikki–uch barobar salmoqli, yuki og'irligidan ba'zi qiltiriqlarining bo'yni bukchayib ham qolgan. Yana razm solsam, bariniki yangi quyilib, hali moyi ham yaxshi artilmagan”* (Ahmad A'zam, 2025). Bu ko'rsatadiki, ular maxsus

tayyorlangan va maydonga yuborilgan. Ommaviy namoyishlar propaganda uchun juda muhim, chunki ular shaxsiy fikrni jamoa fikriga aylantiradi. Odam yolg'iz o'zi biror narsaga ishonmasa ham, ming kishi shu narsaga ishonganda, u ham ishonishga majbur bo'ladi. Bu "*ommaviy psixoz*" yoki "*to'da ta'siri*" deb ataladi.

G'uliyarlar o'z zanjirlariga shunchalik ko'nikib ketganlarki, uni yechish haqida o'ylash ham qo'rqinchli tuyuladi. Asarning oxirida, qahramon maydonda odamlarga erkinlik haqida gapirganda, ular ikki tomonlama munosabat bildiradilar. Ba'zilar erkinlikni xohlaydi, boshqalari esa yanada og'irroq zanjir quydirishni talab qiladi. Bu ko'rsatadiki, propaganda shunchaki tashqi ta'sir emas, balki ichki ishonchga aylanadi.

Asarda G'ulistonning tarixi va an'analari haqida ko'p gapiriladi, lekin haqiqatda bu tarix soxta. Xalq o'z kelib chiqishini ham bilmaydi. Bu totalitar tizimlarning xarakterli xususiyati, ya'ni tarixni o'z manfaatlariga muvofiq qayta yozish va xalqning xotirasini yo'q qilish.

Mexanizmlar sonining farqi ham muhim. Bredberi to'rtta asosiy mexanizmni ko'rsatadi, bu universal va har qanday totalitar tizimda mavjud bo'lgan mexanizmlardir. Ahmad A'zam esa oltita mexanizmni tasvirlaydi va ular orasida post-sovet tajribasiga xos elementlar bor, masalan shaxsga sig'inish, tarixni yo'q qilish, falsafiy chegaralash. Bu har bir totalitar tizim o'zining mahalliy xususiyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi.

Gay Montag va Ahmad A'zamning yozuvchi qahramoni turli pozitsiyalardan kelib chiqadi. Montag tizimning ichidan keladi, u o't o'chiruvchi, ya'ni tizimning faol xizmatchisi. U yillar davomida kitoblarni yoqib yurgan va bunga shubha qilmagan. Uning uyg'onishi bosqichma-bosqich sodir bo'ladi. Birinchi bosqich Klarissa Makklellan bilan tanishish. Bu yosh qiz tizimdan tashqarida turadigan kam sonli odamlardan biri. U Montagga oddiy savollar beradi: baxtlimisiz, nima uchun kitoblarni yoqasiz, osmonda oyni ko'rdingizmi. Bu savollar Montagni hayratga soladi, chunki u hech qachon o'ziga bunday savollar berib ko'rmagan. Ikkinchi bosqich Montagning bir kampirning uyiga kitoblarni yoqishga borishi. Kampir o'z

kitoblari bilan birga yonib ketishni tanlaydi. Bu voqea Montagga ta'sir qiladi: *"...agar kitoblar bunchalik muhim bo'lsa, unda ularda nimalar yozilgan"* (Bredberi R., 2022). Uchinchi bosqichda Montag yashirincha kitoblarni o'qishni boshlaydi va tizimning yolg'onchiligini anglaydi. U tushunib yetadiki, baxt deb atalgan narsa aslida jaholat va passivlik. Haqiqiy baxt bilim va mustaqil fikrlash orqali yaratiladi. To'rtinchi bosqichda Montag tizimga qarshi ochiq qarshi chiqadi, o't o'chiruvchilar tomonidan quvg'in qilinadi va oxir-oqibat shahardan qochib, kitob saqllovchilar guruhiga qo'shiladi. Uning qochishi fizik va aniq, u daryo bo'ylab suzib o'rmonga boradi va u yerda har biri bitta kitobni yodlab olgan odamlar bilan uchrashadi.

Ahmad A'zamning yozuvchi qahramoni esa boshqa holatda. U G'ulistonga tashqaridan keladi, u dastlab erkin odam. Toshkentdan Jizzaxga ketayotganda sirli yo'l orqali G'ulistonga tushib qoladi. U zanjirsiz yagona odam sifatida bu jamiyatni kuzatadi. Uning vazifasi Montagnikidan farq qiladi, u tizimdan qochish emas, balki uni tushunish va tasvirlash bilan shug'ullanadi. Qiziq jihati shundaki, yozuvchining o'zi yozgan kitobi g'uliylarni qo'zg'atadi. Uning asari zanjirsiz hayot haqida bo'lib, g'uliylar uni o'qib, erkinlik haqida o'ylashga majbur bo'ladilar. Ammo bu yerda paradoks bor, chunki yozuvchi bilmagan holda tizimning rejasining bir qismiga aylangan. Xoldor va maxsus xizmat uning kitobini ataylab tarqatgan va g'uliylarning reaksiyasini kuzatgan.

Yozuvchining G'ulistondan chiqishi ham sirli. U maydonda g'uliylarga gapiradi, ammo uning gaplariga hech kim quloq solmaydi yoki tushunmaydi. Keyin u mashinasiga o'tirib, G'ulistondan haydab chiqadi. Ammo bu chiqish aniq emas, chunki u o'z yurtiga qaytganda ham G'ulistonda bo'lgan-bo'lmaganiga ishonch hosil qila olmaydi. Spidometr faqat Toshkentdan Jizzaxgacha bo'lgan masofani ko'rsatadi, go'yo u hech qayoqqa bormagandek.

Ikki qahramonning farqi shundaki, Montag klassik qochish hikoyasining qahramoni, u tizimdan chiqadi va erkin odamlar guruhiga qo'shiladi. Yozuvchi esa postmodern qahramonga o'xshaydi, uning tajribasi real yoki tush ekanligi noaniq, uning ta'siri shubhali. Bu ikki xil yondashuvni aks ettiradi: Bredberi aniq javoblar

beradi, Ahmad A'zam esa savollar qoldiradi.

Bredberining romanida xalq deyarli yagona passiv massa sifatida tasvirlangan. Odamlarning aksariyati televizor oldida o'tirib, virtual oilalar bilan muloqot qiladi. Ular haqiqiy munosabatlarni yo'qotgan, kitoblarni unutgan, mustaqil fikrlashni to'xtatgan. Montagning xotini Mildred bu jamiyatning tipik vakili, u kun bo'yi televizor tomosha qiladi, dori ichadi va hech narsani his qilmaydi. U hatto turmush o'rtog'iga ham qiziqmaydi.

Bu jamiyatda qarshilik ko'rsatadigan odamlar juda kam. Klarissa va uning oilasi, kitob saqllovchilar guruhi – bular istisnalar. Aksariyat odamlar tizimdan mamnun, chunki u ularga baxt va xotirjamlik beradi. Ular bilishmaydilar va bilishni ham xohlamaydilar. Kapitan Bitti buni shunday tushuntiradi: “...*Bilim azob, jaholat esa baxt*” (Bredberi R., 2022)

Ahmad A'zamning asarida esa xalq murakkab va ikkiga bo'lingan. G'uliston maydoni sahnasida ikki guruh paydo bo'ladi. Birinchi guruh zanjirsizlikni xohlovchilar. Ular yozuvchining kitobini o'qib, erkinlik haqida bilib olganlar. Ular zanjirni yechishni, yangi hayot boshlashni xohlaydilar. Ular maydonda to'planib, o'zgarish talab qiladilar. Ikkinchi guruh zanjirni himoya qiluvchilar. Ularning yetakchisi chorpahil deb atalgan g'uliy, u ataylab yangi, og'irroq zanjir quydirib olgan. U maydonda nutq so'zlab, zanjirsiz hayot xavfli ekanligini, zanjir esa g'uliyning identifikatsiyasi va faxri ekanligini tushuntiradi. Ko'p odamlar unga qo'shiladi, chunki erkinlikdan qo'rqadilar. Bu ikki guruh o'rtasida tortishuv kuchayadi. Ba'zilar ozodlik nima ekanligini bilmaydilar va uni yeyiladimi, ichiladimi deb so'raydilar. Boshqalari ozodlikni olish uchun tepadan ruxsat kutadilar. Yana bir guruh esa birinchi bo'lib harakat qilishdan qo'rqadilar.

Ikki asardagi xalq tasvirining farqi shundaki, Bredberi xalqqa qarshi hokimiyat ziddiyatini ko'rsatadi, bunda xalq passiv, hokimiyat faol. Ahmad A'zam esa xalqqa qarshi xalq ziddiyatini tasvirlaydi, bunda xalqning ichida kurash bor, ba'zilar erkinlikni xohlaydi, boshqalari esa qullikni himoya qiladi. Bu post-sovet tajribasining realistik tasviri, chunki jamiyat yagona emas, balki turli qarashlar va manfaatlarga ega guruhlardan iborat.

Yana bir muhim farq shundaki, Bredberida qarshilik ko'rsatuvchilar tashkiliy guruh tashkil qiladi. Ahmad A'zamda esa qarshilik spontan va tartibsiz. G'uliyalar maydonga to'planadi, lekin ular nima qilishni bilmaydilar. Ularda lider yo'q, dastur yo'q, aniq talab yo'q. Bu ham post-sovet tajribasini aks ettiradi, chunki totalitarizm qurbonlari ko'pincha tashkiliy qarshilik ko'rsata olmaydilar.

Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" va Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asarlari antiutopiya janrining ikki muhim namunasi bo'lib, ular propaganda mexanizmlarini turli burchakdan ochib beradi. Bredberining asari universal, abstrakt model yaratadi, u istalgan totalitar tizimga tatbiq etish mumkin bo'lgan mexanizmlarni ko'rsatadi. Uning diqqati bilimni yo'q qilish, intellektual erkinlikni cheklash, ommaviy axborot vositalari orqali ongni boshqarishga qaratilgan.

Ahmad A'zamning asari esa mahalliy, post-sovet tajribasidan kelib chiqadi. U nafaqat universal mexanizmlarni, balki o'ziga xos elementlarni ham ko'rsatadi, masalan shaxsga sig'inish, tarixni qayta yozish, psixologik qullik. Uning asosiy savoli: nima uchun odamlar erkinlikni xohlamaydilar, nima uchun ular o'z zanjirlarini himoya qiladilar.

Ikkala asar ham o'z davrining mahsuli. Bredberi 1950–yillar Amerikasida senzura va makkartizm xavfidan ogohlantirayotgan edi. Ahmad A'zam esa post-sovet davridagi totalitar xotira, erkinlikdan qo'rqish psixologiyasini tasvirlaydi. Ammo har ikkala asar ham bugungi kun uchun dolzarb, chunki propaganda mexanizmlari o'zgarmaydi, faqat shakli yangilanadi.

Propaganda elementlari yaqqol tasvirlangan Jorj Oruellning "1984" romani bilan Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" asarini solishtirsak, ikki xil totalitar nazorat modelini ko'ramiz (Orwell, 1949, 234; Bradbury, 1953, 112). Adabiyotshunoslar Nil Postman o'zining "O'lingacha zavqlanish" asarida ta'kidlaganidek, Oruel jamiyatni axborotdan mahrum qilish orqali boshqarishni tasvirlaydi, Bredberi esa aksincha, ortiqcha axborot va zavqlanish orqali boshqarishni ko'rsatadi (Postman, 1985, 67). Bu ikki model zamonaviy axborot

jamiyatida juda dolzarbdir, chunki nafaqat senzura, balki cheksiz va uzluksiz axborot oqimi ham fikrlashni to'xtatishi mumkin (Postman, 1985, 71).

Lorena Fornining nazariyasiga ko'ra, har ikki asarda preskriptiv tilning qudrati namoyon bo'ladi. Bredberi asaridagi davlat til orqali normalarni o'rnatadi va jamiyatni boshqaradi. Ahmad A'zam romanidagi eski til normasi esa hokimiyat yo'qolgandan keyin ham odamlarni qullikda ushlab turadi. Bu shuni anglatadiki, propaganda faqat siyosiy tuzilma emas, balki tilshunoslik va psixologik hodisadir. U insonning ong tuzilmasiga kirib boradi va uzoq vaqt saqlanadi.

Fransuz faylasufi Jak Ellul ta'kidlaganidek, *zamonaviy propaganda ochiq yolg'on emas, balki haqiqatni tanlash va uni ma'lum kontekstda taqdim etish mexanizmidir* (Ellul, 1965, 112). Bu nuqtayi nazardan, badiiy asar propagandani tasvirlash orqali aslida ikki qavatli ishni bajaradi, birinchidan, propaganda mexanizmlarini tanqid qiladi, ikkinchidan, o'quvchining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi (Booker, 1994; Forni, 2019).

Viktor Klempererning ta'kidlashicha, til buzilganda fikrlash ham buziladi, chunki biz tildan tashqari fikrlay olmaymiz (Klemperer V., 1947, 78). Bu xulosalar Bredberining asaridagi tilni soddalashtirishning oqibatlari tasvirini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Fransuz faylasufi Mishel Fuko diskurs va hokimiyat munosabatlarini tahlil qilib ko'rsatganidek, har qanday ijtimoiy tizimda bilim va hokimiyat ajralmas bo'lib bog'langan. Hokimiyat nafaqat majburlash orqali, balki haqiqat rejimlarini yaratish orqali ishlaydi. Badiiy adabiyot esa shu dominant diskurslarni vizual qilish va tanqid qilish imkoniyatiga ega (Foucault M., 1969, 89; Foucault M., 1975, 167).

Bredberining romanida kitoblarni yo'q qilish aslida muqobil diskurslarni yo'q qilishdir. Diskurs – bu nafaqat til, balki ma'lum bir fikrlash tizimi, dunyoqarash va bilim olish usulidir (Foucault M., 1969, 127). Romandagi o't o'chiruvchilar kitoblarni yoqar ekan, aslida turli xil fikrlash usullarini, muqobil dunyoqarashlarni va tanqidiy ong shakllanish imkoniyatlarini yo'q qilmoqdalar. Har bir kitob alohida bir diskurs tashuvchisi sifatida jamiyatda ko'p qirrali fikrlash muhitini ta'minlaydi.

Shekisper asarlari sevgi va insoniy munosabatlar haqida falsafiy diskursni, ilmiy asarlar mantiqiy–analitik fikrlash diskursini, tarixiy adabiyotlar esa tanqidiy xotira va taqqoslash diskursini shakllantirishga xizmat qiladi. Kitoblar yo‘q qilinganda, jamiyat bitta dominant diskursda – hokimiyat belgilagan fikrlash tizimida qamalib qoladi va muqobil nuqtayi nazarlardan mahrum bo‘ladi.

Ahmad A’zamning “Ro‘yo yoxud Gulistonga safar” asarida esa diskursning boshqa shakli – “xayolot diskurs”i tasvirlanadi. Sovet diskursi rasmiy ravishda tugatilgan bo‘lsa–da, u odamlarning ongida, tilida va fikrlash uslubida saqlanib qoladi. Bu hodisa Fuko nazariyasining postsovet jamiyatlariga qo‘llanilishining yorqin namunasidir. Fuko ta’kidlaganidek, hokimiyat nafaqat qonunlar va senzura orqali, balki “haqiqat rejimlari”ni yaratish, “normal” tushunchalarini belgilash va odamlarning o‘z–o‘zlarini nazorat qilish mexanizmlarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi (Foucault M., 1975, 194). Eng kuchli hokimiyat – bu odamlar o‘zlarini hokimiyat ostida his qilmaydigan hokimiyatdir (Foucault M., 1975, 201).

A’zamning asaridagi qahramonlar mustaqil O‘zbekistonda yashasalar ham, sovet davridagi fikrlash uslubi, qo‘rquvlar va psixologik qaramlik ularning ongida davom etadi. Til qoldiqlari (“partiya aytdi”, “reja bo‘yicha”, “rahbariyat biladi”) hech kim bu iboralarni majbur qilmasa ham, odamlarning nutqida va fikrlashida saqlanib qoladi. Bu ruhiy qullikning maxsus shakli: tashqi zanjirlar yo‘q, lekin ichki zanjirlar mavjud; rasmiy majburlash yo‘q, lekin psixologik inersiya faol ishlaydi.

Bredberining va A’zamning asarlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, propaganda va diskursiv nazorat – bu universal hodisalar bo‘lib, ular turli madaniy kontekstlarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. G‘arb totalitarizmi va postsovet mafkurasi, ochiq senzura va yashirin ruhiy qaramlik – bularning barchasi tilning hokimiyat mexanizmi sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Qiyosiy adabiyotshunoslik metodi esa bu umumbashariy muammolarni aniqlash va turli jamiyatlarning tajribalaridan saboq olish imkonini beradi.

Nil Postman ta’kidlaganidek, nafaqat senzura, balki axborot oqimi ham fikrlashni to‘xtatishi mumkin (Postman N., 1985, 67). Bredberining va Ahmad

A'zamning asarlari aynan shunday ishlaydi, ular to'g'ridan-to'g'ri siyosiy shior berish o'rniga, o'quvchini his-tuyg'ular va obrazlar orqali o'ylanishga undaydi. Bu badiiy adabiyotning propaganda nazoratidan qochish va unga qarshi kurashish mexanizmidir.

XULOSA

Rey Bredberining "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" va Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asarlarini qiyosiy tahlil qilish propaganda mexanizmlarining universal va milliy xususiyatlarini quyidagi yo'nalishlarda ochib berdi:

- a) Til va manipulyatsiya: G'arb antiutopiyasida (Bredberi) til tizimini terminologik buzish va so'z ma'nolarini o'zgartirish asosiy strategiya bo'lsa, Sharq modelida (A. A'zam) til orqali psixologik bog'lanish va ramziy inersiya (zanjir metaforasi) yetakchilik qiladi.
- b) Mexanizmlar murakkabligi: Bredberida to'rtta universal mexanizm tasvirlangan bo'lsa, Ahmad A'zam post-sovet tajribasidan kelib chiqib, shaxsga sig'inish va tarixni qayta yozish kabi oltita murakkab mahalliy elementni ko'rsatadi.
- c) Qahramon va uyg'onish: Montag (Bredberi) tizim ichidan chiqib, klassik evolyutsiyani boshidan kechiradi. Ahmad A'zam qahramoni esa tashqi kuzatuvchi bo'lib qoladi, bu esa modernizm va postmodernizm o'rtasidagi farqni aks ettiradi.
- d) Ommaviy axborot vositalari: Har ikki asarda ham televizor markaziy o'rin tutadi, biroq u Bredberida virtual haqiqat yaratish va passivlashtirish, Ahmad A'zamda esa mafkuraviy bir xillikni ta'minlash vositasidir.
- e) Ramzlar va tarix: Bredberi uchun olov va kitob bilim va yo'q qilish dialektikasini ifodalasa, Ahmad A'zamda zanjir ruhiy qullik va identifikatsiya ramzidir. Shuningdek, Ahmad A'zam asarida xalq xotirasini yo'q qilish va tarixni soxtalashtirish markaziy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, Bredberi asari intellektual manipulyatsiya va bilimni yo'q qilish strategiyasini ko'rsatsa, Ahmad A'zam asari ruhiy qullik va erkinlikdan

qo‘rqish mexanizmlarini ochib beradi. Har ikki yozuvchi ham tilning buzilishi tafakkurning tanazzuliga va hokimiyatning mutlaq nazoratiga olib kelishini ilmiy–badiiy jihatdan isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmad A‘zam. Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar: romanning boshlanishi [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ahmad-Ahmad-A'zam.html> (murojaat qilingan sana: 13.10.2025)
2. Baudrillard J. Simulacra and simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1994. – 164 p.
3. Booker M.K. The dystopian impulse in modern literature: Fiction as social criticism. – Westport: Greenwood Press, 1994. – 198 p.
4. Bradbury R. Fahrenheit 451. – New York: Ballantine Books, 1953. – 256 p.
5. Bredberi R. Farengeyt bo‘yicha 451°. – Toshkent: Nihol nashr, 2022. – 224 b.
6. Chomsky N., Herman E.S. Manufacturing consent: The political economy of the mass media. – New York: Pantheon Books, 1988. – 412 p.
7. Ellul J. Propaganda: The formation of men’s attitudes. – New York: Vintage Books, 1965. – 320 p.
8. Forni L. Language as oppression: The English only movement in the United States. – New York: Palgrave Macmillan, 2019. – 289 p.
9. Foucault M. The archaeology of knowledge. – London: Tavistock Publications, 1972. – 245 p.
10. Foucault M. Discipline and punish: The birth of the prison. – New York: Vintage Books, 1977. – 333 p.
11. Klemperer V. The language of the Third Reich: LTI – Lingua Tertii Imperii. – London: Continuum, 2000. – 298 p.
12. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
13. Lyotard J.F. The postmodern condition: A report on knowledge. – Minneapolis:

- University of Minnesota Press, 1984. – 110 p.
14. McGivern R. What 'carried the trick'? Mass exploitation and the decline of thought in Ray Bradbury's *Fahrenheit 451* // *Extrapolation*. – 1996. – Vol. 37. – № 3. – P. 245–256.
 15. McLuhan M. *Understanding media: The extensions of man*. – New York: McGraw–Hill, 1964. – 365 p.
 16. Orwell G. *Nineteen eighty-four*. – London: Secker and Warburg, 1949. – 328 p.
 17. Postman N. *Amusing ourselves to death: Public discourse in the age of show business*. – New York: Penguin Books, 1985. – 184 p.
 18. Seed D. The flight from the good life: *Fahrenheit 451* in the context of postwar American dystopias // *Journal of American Studies*. – 1994. – Vol. 28. – № 2. – P. 225–240.
 19. Watt D. *Burning bright: Fahrenheit 451 as symbolic dystopia* // *Science fiction: A collection of critical essays* / Ed. R. Rabkin. – Englewood Cliffs: Prentice–Hall, 1980. – P. 195–213.

REFERENCE

1. Ahmad A'zam. (2025). *Ro'yo yoxud G'ulistonga safar: romanning boshlanishi* [Electronic resource]. Retrieved from <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ahmad-Ahmad A'zam.html> (accessed October 13, 2025).
2. Baudrillard, J. (1994). *Simulacra and Simulation*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
3. Booker, M. K. (1994). *The Dystopian Impulse in Modern Literature: Fiction as Social Criticism*. Westport, CT: Greenwood Press.
4. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*. New York: Ballantine Books.
5. Bredberi, R. (2022). *Farengeyt bo'yicha 451°* [*Fahrenheit 451*, Uzbek translation]. Tashkent: Nihol Publishing.
6. Chomsky, N., & Herman, E. S. (1988). *Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media*. New York: Pantheon Books.

7. Ellul, J. (1965). *Propaganda: The Formation of Men's Attitudes*. New York: Vintage Books.
8. Forni, L. (2019). *Language as Oppression: The English-Only Movement in the United States*. New York: Palgrave Macmillan.
9. Foucault, M. (1972). *The Archaeology of Knowledge*. London: Tavistock Publications.
10. Foucault, M. (1977). *Discipline and Punish: The Birth of the Prison*. New York: Vintage Books.
11. Klemperer, V. (2000). *The Language of the Third Reich: LTI – Lingua Tertii Imperii*. London: Continuum.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
13. Lyotard, J.-F. (1984). *The Postmodern Condition: A Report on Knowledge*. Minneapolis: University of Minnesota Press.
14. McGiveron, R. (1996). "What 'Carried the Trick'? Mass Exploitation and the Decline of Thought in Ray Bradbury's *Fahrenheit 451*." *Extrapolation*, 37(3), 245–256.
15. McLuhan, M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. New York: McGraw-Hill.
16. Orwell, G. (1949). *Nineteen Eighty-Four*. London: Secker & Warburg.
17. Postman, N. (1985). *Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business*. New York: Penguin Books.
18. Seed, D. (1994). "The Flight from the Good Life: *Fahrenheit 451* in the Context of Postwar American Dystopias." *Journal of American Studies*, 28(2), 225–240.
19. Watt, D. (1980). "Burning Bright: *Fahrenheit 451* as Symbolic Dystopia." In R. 20. Rabkin (Ed.), *Science Fiction: A Collection of Critical Essays* (pp. 195–213). Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.